

**O‘ZBEK SHEVALARINING FONETIK, LEKSIK, MORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**PHONETIC, LEXICAL AND MORPHOLOGICAL FEATURES OF UZBEK
DIALECTS**

**ФОНЕТИЧЕСКИЕ, ЛЕКСИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТОВ**

Yigitaliyeva Dildoraxon Dilshodjon qizi

Kattaqo‘rg‘on shahar politexnikumi

Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

dildorayigitaliyeva51@gmail.com.

934144905

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari, ularning o‘zbek tilining boyish manbasi ekanligi, hududlarda qo‘llanilishi haqida ma‘lumot berilgan. Lajalarning hududlar miqyosida qo‘llanilishidagi o‘zaro farqlar bayon etilgan. Shevalardagi o‘ziga xos xususiyatlar amaliy va nazariy misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, dialect, fonetik, leksik, morfologik, unli va undoshlar tovushlar, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari.

Annotation: The article provides phonetic, lexical, morphological features of Uzbek dialects, a source of enrichment of the Uzbek language, relevant information. Excessive scale of lajas is explained in the appendix. The peculiarity of the dialects is illustrated by practical and theoretical examples.

Key words: sheva, dialect, dialect, phonetic, lexical, morphological, vowel and consonant sounds, Qarluq, Kipchak, Oghuz dialects.

Аннотация: В статье представлена информация о фонетических, лексических, морфологических особенностях узбекских диалектов, их источнике обогащения узбекского языка, их использовании в регионах. Описаны различия в употреблении ладжей на региональном уровне. Особенности диалектов объясняются на основе практических и теоретических примеров.

Ключевые слова: диалект, диалект, фонетический, лексический, морфологический, гласные и согласные звуки, карлукский, кыпчакский, огузский диалекты.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

O‘zbek tilining asosiy boyish manbalaridan biri bo‘lgan o‘zbek tilining yirik lahjalari hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida shevalarni o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va darsliklar, qo‘llanmalar yaratilgan. Bunga misol qilib, Samixon Ashirboyevning “O‘zbek dialektologiyasi” darslik qo‘llanmasini olishimiz mumkin[1]. Darslik qo‘llanmalar ilan birgalikda ko‘plab ilmiy maqolalar ham yozilgan. Bunga esa

misol qilib, Shoimova N. Qipchoq shevalarining morfologik xususiyatlari haqida (Qashqadaryo shevalari asosida) gi maqolasini olishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

O‘zbek lahjalarini o‘rganish tilshunos olimlarnigina emas, balki, oddiy xalqni ham qiziqtirib kelmoqda. Shu sababli, o‘zbek shevalarning fonetik, morfologik, leksik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarini mavjudligi va ularni o‘rganish kerakligimuhimligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, shevalar turli hududlarda turlicha qo‘llanadi. Bu esa o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALARI (ANALYSIS AND RESULTS).

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qo‘llanadiki, ulaming lug‘aviy va terminologik ma‘nolarini bilish albatta zarurdir. Adabiy til va shevalarni o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham unli tovushlar tarkibi bilan mustahkam bog‘langan. O‘zbek xalqining tili juda ko‘p va xilma-xil so‘z boyliklariga ega. Bunday bo‘lishi tabiiy, chunki o‘zbeklar juda katta hududlarda faqat O‘zbekistondagina emas, balki Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston hamda Qoraqalpog‘iston kabi qardosh Respublikalarda, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Afg‘oniston, Xitoy va boshqa o‘lkalarda tarqalgan bo‘lib, uning ustiga o‘zbek sheva va sheva guruhlari, dialektlarining ko‘pligi va rang-barangligi jihatidan qardosh turkiy tillar orasida birinchi o‘rinda turishidir. Bu faktni o‘z vaqtida o‘zbek shevalari tadqiqotchilarining qaldirg‘ochlaridan biri hisoblangan professor E.D.Polivanov ham ta‘kidlab o‘tgan edi. Tilshunoslikning hamma bo‘limlari bir-biriga bog‘lab o‘rgangandagina ularning taraqqiyot qonunlarini to‘g‘ri tushunish mumkin. Morfologiyadagi egalik kategoriyalari, ularning turlanish, so‘z yasash, leksikasida esa so‘zlarning ma‘nolarini o‘rganish, so‘zlarning turli-tuman shakllarini aniqlash kabi masalalarni fonetik qonunlarini hisobga olmasdan turib tasavvur etish qiyin. Bu hol ayniqsa shevalar uchun muhimdir .

Sheva forsha ravish, tarz, yo‘sin degan ma‘nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. Ma‘lumki, o‘zbek xalqi til jihatidan tarixan uchta yirik qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq, og‘uz deb nomlanuvchi lahjalardan(bu lahjalar esa o‘z navbatida bir qancha sheva, sheva guruhlaridan) tashkil topgan. Ularning har biri umum o‘zbek tili uchun mushtarak so‘z boyligiga ega bo‘lishi bilan birga o‘zlariga xos til xususiyatlariga fonetik, morfologik hamda leksik jihatidan farqlanadigan qator lingvistik belgilariga ega. Misol uchun qarluq-uyg‘ur-chigil dialektida unli tovush uyg‘unligi va ohangdoshlik hodisasi uchramaydi. Shuning uchun ulardagi unli miqdori ko‘p emas, unli tovushlarining soni olti-sakkizdan oshmaydi. Jumladan, Toshkent shevalarida oltita(/, e, u, o), Namangan shevasida sakkizta (‘, a, o, u, e) Marg‘ilon shevasida yettita (‘, a, o, u, e) fonema bor. Bu shevadagi unli fonemalar sifat jihatdan farqlanadi, o‘zlariga xos xususiyatlar qayd etiladi. Buxoro, Urgut, Qarshi, Xo‘jand, Chust shevalarining unli tarkibida ham oltitadan unli fonema bo‘lib, ular miqdor jihatdan Toshkent va Samarqand shevalardagi holatga tengdir.

Jizzax va vodiy shevalari, Toshkent va uning atrofidagi ayrim joylarda, masalan, Olmaliq, Piskent, Yakkasaroy, Chinoz, Parkent va Qarnob shevalarida unlilar Toshkent shevasidagi singaridir. Qo‘qon va Marg‘ilon shevalarida esa unli fonemalarning soni yuqorida keltirilgan shevalardan bitta ortiqdir. unda [a] fonemasi ham ishlatiladi. Qipchoq lahjalarida o‘nta unli fonema qo‘llanadi:

[a-e], [o-e], [u-u], [iu-i], [s-e]. Bu shevalarda unlilar ohangdoshligi hodisasi saqlangan, lab va qisman ohangdoshligi mavjud. Shunga ko‘ra unli tovushlarning sakkiztasi juft holda qo‘llanadi. Bu o‘zbek tilining hamma qipchoq shevalari uchun umumiy xusuiyatga ega. Bunda ularning ba‘zilarida hali [s] fonemasining to‘la shakllanib etmaganligini qayd etish mumkin. Natijada [s] va [a] unlilarining almashinib qo‘llanish holatlari ko‘zga tashlanib turadi. Shunday qilib, shevalarning materillarida tovushlarning o‘zgarishi, jaranglashish yoki jarangsizlanib tushib qolish yo Tilshunoslikki orttirilish, o‘rin almashish yoki kuchsizlanish kabi hodisalarning nutq jarayonida hosil bo‘lishi, ohangdoshlik, undoshlarning o‘rin almashinishi, assimilatsiya, dissimilatsiya, qo‘sh undosh kabilarni qamrab oladi.

Undoshlar tarkibi:

O‘zbek shevalaridagi undosh tovushlar, asosan, adabiy tildagi holatga mos keladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Undagi hozirgi adabiy tildagi ba‘zi undoshlar qo‘llanilmaydi. Shevadagi [c,f,j] undoshlari shular jumlasidandur. O‘zbek adabiy tilidagi [c] undosh fonemasi bu shevalarda ham [ts] yoki [s] undoshlari tarzida ishlatiladi. shevalarda mustaqil tovush sifatida ko‘zga tashlanmaydi, hamda [p] undoshi bilan almashinib keladi. U ba‘zi bir undov so‘zlarda ham o‘zlashtirilgan bir nechta so‘zlarda ham uchraydi, xolos. Samarqand, Buxoro shevalari esa bundan mustasnodir. Adabiy tilimizdagi [J] undoshi shevada [dj] va [j] deb ikki xilda qo‘llaniladi. [j] undoshi boshqa tillardan fors, arab va rus tillari orqali kirib kelgan. Ba‘zi bir so‘zlardagina keladi. [J] undoshi qipchoq gruhi sevalarida ko‘proq ishlatiladi. Qipchoq guruhini tashkil etuvchi shevalarning ayrimlarida [x] tovushi o‘rnida [k], boshqa bir xildagi shevalarda esa [k] undoshi o‘rnida [g] undoshi keladi. Qolgan undosh tovushlarning hammasi o‘zbek adabiy tilidagi undosh fonemalardan deyarli farq qilmaydi. Ularda uchraydigan ayrim o‘zgarishlarga duchor bo‘lib turadi.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi tukyu (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar. Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torm daryosigacha bo‘lgan territoriyada qarluqlar bilan birga chigil, xalaj, yag‘mo qabilalari ham yashaganlar, uyg‘urlar ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan.

Mazkur lahja vakillari, ko‘proq shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi. Fanda ushbu lahjalar qisqacha qarluq lahjasi deb yuritiladi. Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singormanizimini saqlashiga ko‘ra ikki guruhga ajralishidir, ya‘ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singormanizm qonuni amal qilmaydi. (Uning ayrim ko‘rinishlarigina mavud bo‘ladi. Ushbu lahja shevalaridagi unlilar olti-yettitadan (ə/a, o/o, y/u, ʔ/i, e/e, a/a, ə/a) oshmaydi, shimoliy o‘zbek shevalarida esa 9, 10 unli a(ə)/a(a), ə/a, o/o, e /ɛ, y/u, y/u, ы(ʔ)Л('0, H(b)/i:(i), e/e qatnashadi. O‘g‘uz lahja vakillari 0 ‘zbekiston

Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako‘l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog‘istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar. O‘g‘uz lahjasi, asosan, Xorazm viloyatida keng tarqalgan, lekin bu viloyat faqat shu lahjadan iborat degan so‘z emas. Professor F.Abdullayevning ko‘rsatishicha, bu viloyatda qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor.

- o‘g‘uz lahja shevalarida a/a, y/u, y/ii, u/i:, ʼ/i, ʼ/ʼ, ʼ/i, o/o, o/ɒ, s/a, e/e unlilari qo‘llanadi. Xorazm shevasi fonetik jihatdan [k]harfi o‘rniga ko‘proq [g va q] undoshlarini aytib talaffuz qilishadi. [o] tovushi o‘rniga [a] tovushini aytib talaffuz qilishadi. Misol uchun Xorazm shevasidagi ba’zi bir so‘zlarni oladigan bo‘lsak:

[tog‘a-tog‘o]: Bu so‘zda [a] tovushi o‘rnida [o] tovushi qo‘llangan.

[tandir-tanur]: So‘z o‘rtasidagi undosh tovushlar tushirilib, talaffuz qilinadi.

[Dedi-dadi]: Dastlabki bo‘indagi [e] unlisi [a] unlisiga o‘tadi.

[tun-du:n]: So‘z boshida [t] undoshi jaranglashadi.

[bunday-bundij]: so‘zdagi [ay]unlisi [iy] unlisiga o‘zgaradi.

Qipchoq lahjasida ba’zi so‘zlarning fonetik xususiyatlari:

[xayol-qiyal]:[x] undoshi talaffuzda [q] undoshiga o‘tadi.

[aql-haqli]: Unli bilan boshlanadigan so‘zlar boshida [h] undoshi orttiriladi.

[ekin-egin]: Unlilar o‘rtasida [p,kq] undoshlari jaranglashadi.

[tashlamoq-tajlamoq]: So‘zlar o‘rtasidagi [sh] undoshi [y]tarzida talaffuz qilinadi.

[kelinglar-kelizlar]: So‘zlar o‘rtasidagi [ng] undoshi [z]tarzida talaffuz qilinadi.

[yomon-Jomon]: So‘z boshidagi [y] undoshi o‘rniga [j] undoshi talaffuz qilinadi.

[tog‘-tav]: So‘z o‘rtasida va oxiridagi [g‘,q,k] undoshlari [v]undoshiga o‘tadi.

Qarluq-uyg‘ur-chigil lahjasidagi o‘ziga xos fonetik xususiyatlar:

[aka-oka]: Bu so‘zda [a] tovushi o‘rnida [o] tovushi qo‘llangan.

[Sariq-saru]: So‘z oxirida [q]undoshi tushib qoladi va [i] unli fonemasi ham [u]fonemasiga o‘zgaradi.

[Kerak-kere]: Bunda oxiridagi [k]undoshi tushirib talaffuz qillnadi.

[soat-sohat]: Arab tilidan kirib kelgan qator unlili so‘zlarning o‘rtasiga [h] yoki [g‘] tovushlari qo‘shib talaffuz qilinadi.

[To‘qson-to‘xsan]: Turli holatlarda [x/q] undoshlari almashadi.

[Mana shu-mashi]: Ko‘rsatish olmoshlari o‘rtasidagi ma‘lum bir so‘zlari tushirilib, so‘z boshidagi ikki harf hamda so‘zning oxiri qo‘shib talaffuz qilinadi.

[tush-chush]: So‘z boshida [t/ch-s/ch] undoshlari almashadi.

O‘g‘uz lahjasidagi o‘ziga xos morfologik xususiyatlari:

a) Qaratqich kelishigi affiksining - ung//bing formasida ishlatilishi: atbing bashing otning boshi;

jo‘nalish kelishigi affiksining -a//ə formasida qo‘llanishi: atbma||ad. otimga;

kelasi zamon formasining -джаq//джэк affiksi bilan qo‘llanishi: gahdztesk;

istak fe‘li formasining -1ʼ//1ʼ affiksi bilan ishlatilishi: galalb;

d) barsana (ad. orf. bersangchi) tipidagi buyruq fe’li formalarining mavjudligi va boshqalar.

O‘g‘uz lahjasi shevalar miqdoriga va shu lahjada so‘zlovchi aholi soniga ko‘ra o‘zbek tili dialekt kompleksida (boshqa lahjalarga nisbatan) oxirgi o‘rinda turadi.

Qipchoq lahjasidagi o‘ziga xos morfologik xususiyatlari:

Bu lahja shevalari 5 va 4 kelishikli shevalardir. Bundan shimoliy o‘zbek shevalari mustasno bo‘lib, Chimkent shahar shevasigina 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida 6 kelishik saqlanadi. Fe’l shakllarida ham o‘ziga xosliklar mavjud.

a) Qaratqich va tushum kelishiklari affiksida —n//d//t tovushlarining almashinishi: -tibng/Znbtig, -dbtig//dbng, -tbng/Ztbng, -nbZZnb, -dbZZdb, -tbZZtb.

shaxs olmoshlarining jo ‘nalish kelishigi shakli mag‘an, sag‘an, ug‘an;

C) hozirgi zamon davom fe’lining -flacatbr bilan yasalishi: БагаджМы;

kelasi zamon sifatdoshining -tbg‘an bilan yasalishi: kelatbg‘an.

D) —da kelishigi o‘rnida —ga kelishigi qo‘llanadi.

Qarluq-uyg‘ur-chigil lahjasidagi o‘ziga xos morfologik xususiyatlari:

Toshkent, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon shevalarining barchasida ham ot turlovchi qo‘shimchalardan -пъ affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi. Qaratqich-tushum kelishigi affiksining fonetik variantlariga ko‘ra bu shevalami ikki gruppaga ajratish mumkin: A. - пъ affiksi undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilib kelganda, uning birinchi tovushi to‘liq progressiv assimilyatsiyaga uchrovchi shevalar (imli bilan tugagan so‘zlarga bu affiks qo‘shilganda -пъ saqlanadi). Bunga Toshkent, Namangan hamda o‘z fonetik xususiyatlari jihatidan shahar shevalariga yaqin turuvchi ba’zi qishloq shevalari kiradi: Misollar: Toshk. tyzzb< tuzni, tomim»

B) —yap affiksi hozirgi zamon shaklini hosil qiladi: boryapti, qilyapti

O‘g‘uz lahjasidagi o‘ziga xos lekisk xususiyatlar:

Kabob-jarkob	to'ga-dayi
Nega-nechun	lagan-choroq
Dayi-erkak	chumoli-qarinch
Yostiq-taka	chumchuq-seycha
Qayerga-nerede	olxo'ri-qazali, qarj
Sabzi-gashir	o'rik- zardoli
Olcha-chiya	kapkir- cho'lp
Yengichak-yengsa	oqliq-ko'nargi
Kelin-galin	tom-uchak
eshik-qapi	sigir-inak
Ona-opa	ziqna-ko'timoq
Dada-aka	qo'ni kalta etik-mukki
Opa-opka	chinor-gujum
Aka-og'o	nima qilmoqchisan-shatjaksan
Qishloq-ova	
Mahalla-elot	

Qipchoq lahjasidagi o'ziga xos leksik xususiyatlari:

<u>Oshqavoq-kadi</u>	<u>yog'-moy</u>
<u>Pochcha-yazna</u>	<u>bola-bachcha</u>
<u>Kichkina-mayda</u>	<u>salad-chimcha</u>
<u>Voy-ibi</u>	<u>tuxum-moyak</u>
<u>Xa-hay</u>	<u>qaynatilgan suv-objush</u>
<u>Mushuk-pishak</u>	<u>ari-zambur</u>
<u>Qarindosh-bo'la</u>	<u>volg'on-oshak</u>
<u>Qo'shni-xamsoya</u>	<u>tovoq-lali</u>
<u>tovoq-lali</u>	<u>farosat-indim</u>
<u>Chelak-satil</u>	<u>saranjom qildi- sanjab qoldi</u>
<u>Do'ppi-to'ppa</u>	<u>ona-nana</u>
<u>Somsa-pechak</u>	<u>xandalak-zomicha</u>
<u>Suzma-chakki</u>	<u>katta ona- to'tabibi</u>
<u>Kelinovi-yanga</u>	<u>supurgi-jo'rab</u>
<u>Til g'amli-yemgish</u>	<u>yirik-mayda aralash-lashm</u>
<u>Epchil-g'adan</u>	<u>jarchi-aytim</u>
<u>Hayriyat-mavt</u>	<u>titroq-varadja</u>

Qarluq lahjasidagi leksik xususiyatlar:

<u>Obdasta-chaygun</u>	<u>cho'milmoq-ho'pitmoq</u>
<u>Bobo-oppodada</u>	<u>buvi-opoqi</u>
<u>Sho'xlik qilib qiynamoq-qiyratmoq</u>	<u>o'ziga e'tiborisz-polpis</u>
<u>Biror ishni eplay olmaydigan-so'ltamat</u>	<u>qarg'a-po'nka</u>
<u>Lapashanglik-sumadalamoq</u>	<u>yo'ldan ozdiruvchi mahluq-ozitqi</u>
<u>Qalamcha-palg'ari</u>	<u>bargsiz-kesmadaldak</u>
<u>Makkaning bargsiz qismi-bo'riq</u>	<u>suv yuttirmoq-yo'lliqtirmoq</u>
<u>Qayni og'a-ukacha</u>	<u>amaking xotini-momo</u>
<u>O'g'il bola do'st-o'rtoq</u>	<u>Narvon-shoti</u>
<u>Chelak-paqir</u>	<u>amaki-katta dada</u>
<u>Ona-aba</u>	<u>zirak-sirg'a</u>

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION / RECOMMENDATIONS).

Demak, shevalardagi mavjud bo‘lgan ana shu rang-barang til xususiyatlarini o‘rganib chiqish, ularni yozib olmasa, ular vaqtlar o‘tishi bilan o‘zgaradi, xalqimiz tarixi, uning ma‘naviy va moddiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida fan uchun, kelajak avlod uchun izziz yo‘qolib ketishi mumkin. Shevalardagi shu muqaddas boyliklarni to‘plab olish, o‘zbek atamalarini tartibga solishda, shevalar lug‘atini, o‘zbekcha-ruscha, izohli lug‘atlarni yaratishda bu xalq xazinasini bebaho manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirboyev Samixon. “O‘zbek dialektologiyasi” “Navro‘z” nashriyoti Toshkent. 2016. 65-75-betlar.
2. Shoimova N. Qipchoq shevalarining morfologik xususiyatlari haqida (Qashqadaryo shevalari asosida) Tilshunoslikning dolzarb muommolari III-qism Toshkent. 2006-yil 238-bet
3. Google.com. sayti.
4. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.